OILADAGI SHAXSLARARO ZIDDIYATLAR VA ULARNING TOLERANTLIK BILAN BOG'LIQLIGI

Maxsudova M.A.
NamDU dotsenti
Solmonova S. F.
NamDU 2-kurs magistranti
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23975345

Annotatsiya*: Mazkur ilmiy maqolada zamonaviy oilalarda yuzaga keladigan shaxslararo ziddiyatlarning kelib chiqish sabablari, ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, oilaviy muhit va farzandlar tarbiyasiga ta'siri hamda bu jarayonda tolerantlik (bag'rikenglik) tamoyilining tutgan o'rni chuqur tahlil qilingan. Maqolada oilaviy nizolarning destruktiv va konstruktiv shakllari o'rtasidagi farqlar ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etishda empatiya, kompromiss, o'zaro hurmat kabi tolerantlikning psixologik mexanizmlarining ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, oilada sog'lom psixologik muhitni yaratish va mustahkamlash, ajrimlarning oldini olish hamda shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Oilaviy ziddiyatlar, shaxslararo munosabatlar, tolerantlik, bag'rikenglik, psixologik muhit, empatiya, kompromiss, konstruktiv muloqot, oilaviy qadriyatlar.*

Annotatsiya*: В данной научной статье глубоко проанализированы причины возникновения межличностных конфликтов в современных семьях, их социально-психологические особенности, влияние на семейную атмосферу и воспитание детей, а также роль принципа толерантности (терпимости) в этом процессе. В статье показаны различия между деструктивными и конструктивными формами семейных конфликтов, раскрыто значение таких психологических механизмов толерантности, как эмпатия, компромисс и взаимное уважение в преодолении конфликтных ситуаций. Кроме того, предложены научно-практические рекомендации по формированию культуры толерантности в целях создания и укрепления здоровой*

психологической среды в семье, предотвращения разводов и обеспечения социальной адаптации личности в обществе.

***Ключевые слова**: Семейные конфликты, межличностные отношения, толерантность, терпимость, психологическая среда, эмпатия, компромисс, конструктивное общение, семейные ценности.*

***Abstract**: This scientific article deeply analyzes the causes of interpersonal conflicts in modern families, their socio-psychological characteristics, their impact on the family atmosphere and child rearing, and the role of the principle of tolerance in this process. The article outlines the differences between destructive and constructive forms of family conflicts, and reveals the significance of psychological mechanisms of tolerance—such as empathy, compromise, and mutual respect—in overcoming conflict situations. Furthermore, scientific and practical recommendations are provided on cultivating a culture of tolerance to create and strengthen a healthy psychological environment within the family, prevent divorces, and ensure the social adaptation of the individual in society.*

***Keywords**: Family conflicts, interpersonal relations, tolerance, psychological environment, empathy, compromise, constructive communication, family values.*

Kirish. Oila jamiyatning eng asosiy, qadimiy va muqaddas bo'g'ini bo'lib, shaxsning shakllanishi, uning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini egallashida birlamchi ijtimoiy muhit hisoblanadi. Jamiyatning taraqqiyot darajasi, uning madaniy va ma'naviy salohiyati ko'p jihatdan oilalardagi sog'lom muhit, o'zaro hurmat va barqarorlikka tayanadi. Zero, har bir inson o'z hayotining ilk qadamlarini oilada boshlaydi, jamiyatdagi ilk ijtimoiy rollarni, muloqot madaniyatini va axloqiy me'yorlarni aynan oilaviy muhitda o'zlashtiradi. Biroq, har qanday kichik ijtimoiy guruh singari, oilada ham shaxslararo munosabatlarning murakkabligi, turli xarakter va ehtiyojlarning to'qnashuvi natijasida turli darajadagi ziddiyatlar yuzaga kelishi muqarrar jarayondir.

Bugungi jadal ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, globallashuv jarayonlari, axborot oqimining ko'payishi va kundalik hayotdagi stress omillari zamonaviy oilalar oldiga ko'plab yangi sinovlarni qo'ymoqda. Er-xotinlar, ota-onalar va farzandlar hamda aka-uka va opa singillar o'rtasidagi qarashlar, hayotiy qadriyatlar va ehtiyojlarning bir-biriga mos kelmasligi oilaviy nizolarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Statistik

ma'lumotlar va psixologik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy oilalarda yuzaga keladigan ko'plab ajrimlar, shaxsiy tushkunliklar va farzandlar tarbiyasidagi og'ishishlarning tagida aynan hal etilmagan shaxslararo ziddiyatlar yotadi.

Ziddiyatlarning o'zi obyektiv ijtimoiy-psixologik hodisa bo'lib, u har doim ham salbiy ma'no kasb etmaydi. Ba'zi hollarda o'z vaqtida va to'g'ri boshqarilgan ziddiyatlar oilaviy munosabatlardagi yashirin muammolarni yuzaga chiqarib, munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarishga, er-xotinning bir-birini chuqurroq tushunishiga xizmat qilishi mumkin. Bunday holatlar konstruktiv ziddiyatlar deb atalib, ular oila rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, aksariyat hollarda destruktiv (buzg'unchi) tus olgan nizolar oilaviy muhitni izdan chiqaradi, o'zaro ishonchni yo'q qiladi, turmush o'rtog'i va farzandlarning ruhiyatiga jiddiy zarar yetkazadi. Ana shunday salbiy oqiblarning oldini olish, oilaviy nizolarning oldini olish hamda shaxslararo munosabatlarni uyg'unlashtirishda tolerantlik (bag'rikenglik) tamoyili hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. *Psixologik jihatdan tolerantlik* — boshqa insonning fikri, xulq-atvori, qadriyatlari va individual xususiyatlarini u o'ziga xos tarzda qabul qila olish, o'zaro farqlarga hurmat bilan yondashish va murosasozlik qobiliyatidir. Oilada bag'rikenglik muhitining mavjudligi har bir oila a'zosiga o'z fikrini erkin bildirish, xato qilish huquqiga egaligini his qilish va psixologik xavfsizlikni ta'minlaydi.

Mazkur ilmiy maqolaning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylash, ajrimlarning oldini olish hamda oilalarda sog'lom psixologik muhitni yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Shu bois, oiladagi shaxslararo ziddiyatlarning kelib chiqish sabablarini chuqur o'rganish va ularni bartaraf etishda tolerantlik mexanizmlarining ilmiy-amaliy ahamiyatini ochib berish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy shaxslararo ziddiyatlarning kelib chiqish sabablari:

- Oiladagi ziddiyatlar ko'p qirrali bo'lib, ularni shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:
- Ijtimoiy-iqtisodiy sabablar: Moddiy yetishmovchilik, uy-joy muammolari, oila budjetini taqsimlashdagi kelishmovchiliklar.

- Psixologik-fiziologik sabablar: Xarakterlardagi tafovutlar, temperament tiplarining mos kelmasligi, charchoq, stress holatlari va psixologik moslashuv davrining murakkabliklari.
- Ma'naviy-axloqiy va madaniy sabablar: Hayotiy qadriyatlar, urf-odatlar va qarashlarning turlicha bo'lishi, oilaviy rollarni bajarishda mas'uliyatsizlik.
- Muloqot madaniyatining pastligi: Bir-birini tinglay olmaslik, hurmatsizlik, tanqidning asossizligi va o'zaro tushunmovchilik.

Shuning uchun ham nafaqat yoshlarimiz balki faoliyati bevosita nikoh-oila muammolari bilan bog'liq bo'lgan mutasaddi xodimlar, mahalla, hokimiyat vakillari, katta yoshdagilar ham hozirgi zamon oilasining ijtimoiy psixologik xusuiyatlari, er-xotin nizolari, oilaviy nizolar psixologiyasi haqida tegishli ma’lumotlarga ega bo'lishlari maqsadga muvoflqdir. Yoshlarimiz esa er-xotin nizolarini jiddiy, ayanchli oqibatlarga olib keluvchi: ajratuvchi «men» xarakteridagi «chegaralanmagan» turlaridan ogoh bo'lishi, o'z hayotlarida shu toifa nizolaming yuzaga keltirmaslik, ularning oldini olish va bartaraf etish borasida zarur bo'lgan bilim va ma’lumotlarga ega bo'lishlari lozim. [3,157 s]

Tolerantlik (bag‘rikenglik) tarixiy-ijtimoiy va pedagogik-psixologik kategoriya bo‘lib, u davr bilan hamnafas tarzda mazmunan va mohiyatan o‘zgarib, takomillashib boradi. Jumladan, mamlakatimiz mustaqilligi yillarida ushbu tushunchaning mazmun va mohiyati tubdan o‘zgardi. Bu, birinchidan, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohalardagi tub islohotlarni amalga oshirish, jamiyatdagi globallashuv va postindustrial rivojlanish, mamlakatning dunyo mamlakatlari hamda xalqlari bilan o‘zaro do‘stona aloqalarining keng yo‘lga qo‘yilishi; ikkinchidan esa, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy rivojlantirish hamda modernizatsiya qilishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli tobora ortib borayotgani bilan xarakterlanadi. YUNESKO tashkilotining 28-sessiyasida (1995-yil 16-noyabr, Parij) ishtirok etgan 185 ta davlat vakillari va mas’ul shaxslari “Tolerantlik tamoyillari deklaratsiyasi”ni imzoladilar. Shuningdek, BMT tomonidan 2003-yil dunyo miqyosida xalqaro tolerantlik yili deb e’lon qilindi. 16-noyabr esa Xalqaro tolerantlik kuni sifatida e’lon qilinib, butun jahonda nishonlana boshlandi. Shunga ko‘ra, ta’lim tizimining barcha bosqichlarida, oilada, mahallada va nodavlat notijorat tashkilotlari tarbiyaviy ishlari mazmunida O‘zbekistonning kelajagi hisoblangan

yoshlarning ongi va tafakkurida tolerantlikni shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tolerantlik (lotincha tolerantia — chidamlilik, sabr-toqat) — boshqa shaxsning fikrlari, e'tiqodi, xulq-atvori va turmush tarziga hurmat bilan yondashish, uni o'zidek qabul kila olish qobiliyatidir. [2,34 s]

Oilaviy munosabatlarda tolerantlik quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

Empatiya (hamdardlik): Turmush o'rtog'ining yoki oila a'zosining holatini tushunish, uning hissiyotlarini o'z boshidan kechagandek his qila olish.

Kompromisga (yon berishga) *tayyorgarlik:* Har doim ham o'z haqiqatini majburan o'tkazishga intilmasdan, o'zaro manfaatli yechim topish.

Individual farqlarni hurmat qilish: Har bir insonning o'ziga xos dunyoqarashi, shaxsiy makoni va xatoga yo'l qo'yish huquqi borligini tan olish.

Ziddiyatlarni hal etishda tolerantlikning psixologik mexanizmlari:

- Oilada tolerantlik muhitini shakllantirish shaxslararo ziddiyatlarning oldini olish va ularni yumshatishda asosiy vosita hisoblanadi. Ilmiy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bag'rikenglik darajasi yuqori bo'lgan oilalarda quyidagi holatlar kuzatiladi:
- Nizolarni konstruktiv hal qilish: Muammolar baqir-chaqir yoki tajovuzkorlik bilan emas, balki konstruktiv muloqot, o'zaro muzokaralar va eng asosiysi bir birini eshitish xatosini tushunib yetish va oqilona qaror qabul qilish orqali hal etiladi.

Emotsional barqarorlik: Oila a'zolari stressli vaziyatlarda ham o'zini tuta biladi, bu esa mojarolarning chuqurlashishiga, tur xildagi kuchli janjallarning kuchayishiga yo'l qo'ymaydi. [1, 22 s]

Psixologik xavfsizlik: Oila a'zolari o'z fikrini erkin bildira oladigan, tanqid ostida qolishdan qo'rqmaydigan sog'lom muhit yuzaga keladi. Shu o‘rinda aytish joizki, tolerantlik deganda mutlaq jim turish, zo'ravonlikka chidash yoki o'z manfaatlarini poymol qilish tushunilmaydi. Aksincha, u bir birini tushunish, anglash, qadriyatlarinj e‘zozlash va o'zaro hurmatga asoslangan ongli va faol murosasozlikdir. Sharq uyg‘onish davri hadis ilmi sultoni Imom al-Buxoriy ham o'zining ko'plab asarlarida, ilmiy-

ma’naviy merosida tolerantlik - axloq, xushxulqlik, sabr-toqatlilik, bag‘rikenglik va muloyimlik me’yorlari yosh avlod tarbiyasiga namuna sifatida tahlil etilgan. Shu bois, oiladagi shaxlararo munosabatlarda yoshlarning axloq-odobini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash imkonini beruvchi islom ma’rifati fundamental asos hisoblanadi. Oila psixologiyasida yuksak axloq va sabr-toqat madaniyatini shakllantirishda Imom al-Buxoriyning “Al-adab al-mufrad” asarini alohida ko‘rsatish mumkin. Unda tolerantlikning islomiy mazmuni, sabr-toqat va odob-axloq masalalari quyidagi hadislar orqali yoritilgan: «“Kimning uch qizi bo‘lib, ularni tarbiyalashdagi qiyinchiliklarga sabr qilsa va mol-dunyosidan ularning kiyim-kechaklarini but qilsa, ular o‘sha kishi uchun do‘zaxdan parda bo‘ladi.”» Shuningdek: «“Islomni bilingiz va odamlar uchun oson qilingiz. G‘azablanganingizda sukut qiling.”» Yana bir hadisda: «“Odamlar orasida yashab, ulardan yetadigan ozorlarga sabr qilgan mo‘min, odamlardan chetda yurib, ularning ozoriga sabr qilmaydigan kishidan afzaldir”, — deyiladi.»

Abu Nasr Forobiy qarashlarida ham tolerantlik masalasi insoniy xislat va fazilatlarda o‘z aksini topgan. Uning fikricha, shahar hokimining jamiyat fuqarolariga nisbatan fazilatli bo‘lishida tolerantlik muhim o‘rin tutadi. *Jumladan:*

- shahar hokimi sabr-toqatli bo‘lishi, unda murosasizlik va jahldorlik yuzaga kelmasligi uchun avvalo jismonan sog‘lom bo‘lishi;
- suhbatdoshini diqqat bilan tinglashi, uni tushunishi va his qila olishi;
- jamiyat fuqarolariga nisbatan mo‘tadil va adolatli munosabatda bo‘lishi;
- ta’lim olishga, bilim va ma’rifatni egallashga havasli bo‘lishi hamda o‘qish va o‘rganish jarayonida sabr-toqatli bo‘lishi zarur.- dunyo ne’matlariga nisbatan sabr-me’yorli bo‘lishi;
- haqiqatsizlik, haqsizlik, razolat, adolatsizlik va yolg‘onchilikka murosasiz bo‘lishi;

har bir ishda sabr-toqat va murosa bilan ish tutishi zarur. [4, 10 s]

Abu Nasr Forobiy shahar hokimi timsolida tolerantlik jamiyatda eng ehtiyojmand fazilatlardan biri ekanligini ko‘rsatib bergan. Mazkur allomaning falsafiy merosida tolerantlik shahar aholisining johil va fozil toifalarga bo‘linishi hamda shahar hokimining boshqaruvdagi eng muhim

fazilatlaridan biri sifatida talqin etiladi. Unga ko‘ra, shahar hokimi: «..odil odamlarni sevadigan, istibdod va qabr-zulmni, mustabid va zolimlarni yomon ko‘ruvchi, o‘z fuqarolariga ham, begonalarga ham haqiqat va adolat bilan munosabatda bo‘luvchi, barchani adolatga chorlovchi, nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi, hammaga yaxshilikni va o‘zi sevgan ezguliklarni ravo ko‘ruvchi bo‘lishi zarur. U haq ish oldida o‘jarlik qilmasligi, odil ish tutishi, har qanday haqsizlik va razolatga murosasiz bo‘lishi kerak”, — deya tolerantlikning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘rnini alohida ta’kidlaydi.» [4, 8 s]

Yusuf Xos Hojibning ijtimoiy qarashlarida ham tolerantlik quyidagicha ifodalanadi: “…yumshoq ko‘ngillilik odating bo‘lsin. Hasaddan yiroq tur. Uyatsiz kishilardan doimo uzoq bo‘l. Nomusli va or-andishali insonlar bilan do‘st tutin. Biror ishda shoshilma. Sabr va qanoat qil. Yo‘l-yo‘riqning o‘rtachasini tut. Tilingni ham, ko‘zingni ham asra. Xiyonat ahlidan chetda bo‘l. O‘zingga loyiq ko‘rmagan zararni boshqalarga ham ravo ko‘rma. G‘azabingni bos, doimo og‘ir-bosiq bo‘l. Sabr qilish ham jasurlar ishidir.” [4, 12 s]

Mazkur fikrlar sabr-toqat, bag‘rikenglik, adolat va insonparvarlikni jamiyat taraqqiyoti hamda komil insonni tarbiyalashning muhim omillari sifatida asoslaydi.

Oilaviy shaxslararo ziddiyatlar jamiyat taraqqiyoti davomida mavjud bo'lgan muqarrar jarayon bo'lsa-da, ularning oqibatlarini boshqarish mumkin. Tolerantlik oilaviy munosabatlarning mustahkamligi, er-xotin o'rtasidagi mehr-oqibat va farzandlarning sog'lom muhitda ulg'ayishini ta'minlovchi asosiy ustundir. Oilada bag'rikenglik madaniyatini yuksaltirish orqali ko'plab ajrimlar, ruhiy tushkunliklar va ijtimoiy muammolarning oldini olishga erishiladi.Xulosa qilib aytgach, oiladagi shaxslararo ziddiyatlar jamiyat taraqqiyoti davomida muqarrar ravishda yuzaga keladigan, biroq to'g'ri boshqarilsa oilaviy munosabatlarni yanada mustahkamlovchi psixologik-ijtimoiy jarayon hisoblanadi. Bugungi jadal o'zgarishlar davrida er-xotinlar, ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi o'zaro tushunmovchiliklar, ijtimoiy-iqtisodiy bosimlar hamda dunyoqarashdagi tafovutlar nizolarni keltirib chiqarmoqda. Agar bunday ziddiyatlar o'z vaqtida konstruktiv tarzda hal etilmasa, ular nafaqat oilalarning buzilishiga, balki farzandlar ruhiyatining og'ir shikastlanishiga va jamiyatda ijtimoiy muammolarning ortishiga olib keladi. Tahlillari shuni

ko'rsatadiki, oilaviy nizolarning oldini olish va ularning salbiy ta'sirini yumshatishda tolerantlik (bag'rikenglik) tamoyili hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tolerantlik – bu shunchaki qiyinchiliklarga chidash yoki muammolarga ko'z yumish emas, balki oila a'zolarining individual xususiyatlari, o'ziga xos dunyoqarashi va xatolarini ongli ravishda hurmat qilish, empatiya orqali bir-birining ichki olamini tushunish hamda har qanday murakkab vaziyatda ham o'zaro manfaatli kompromiss topa olish qobiliyatidir.

Yuqorida keltirilgan ilmiy-falsafiy va ma’naviy meros tahlili shuni ko‘rsatadiki, Sharq mutafakkirlari tolerantlikni nafaqat shaxsiy axloqiy fazilat, balki jamiyat barqarorligi, ijtimoiy hamjihatlik va insonlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmatni ta’minlovchi muhim qadriyat sifatida talqin etganlar. Ularning asarlarida sabr-toqat, bag‘rikenglik, adolat, muruvvat va insonparvarlik kabi fazilatlar komil insonni tarbiyalashning asosiy mezonlari sifatida e’tirof etiladi. Shu nuqtai nazardan, Sharq mutafakkirlarining tolerantlikka oid qarashlari bugungi kunda ham o‘z ilmiy va amaliy ahamiyatini yo‘qotmagan. Mazkur g‘oyalarni yoshlar tarbiyasi hamda oiladagi shaxslararo munosabatlar tizimiga samarali tatbiq etish ularda o‘zaro hurmat, murosa, mas’uliyat va bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa jamiyatda sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirish, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va psixologik tolerantlikni rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Oilada sog'lom va xavfsiz psixologik muhitni shakllantirish uchun quyidagi ilmiy-amaliy yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim:

Muloqot madaniyatini yuksaltirish: Oila a'zolarining bir-birini diqqat bilan tinglay olishi, o'z hissiyotlarini ochiq va tajovuzkorliksiz bildira olish ko'nikmalarini rivojlantirish;

Empatiyani rivojlantirish: Turmush o'rtog'i yoki farzandning hissiy holatini to'g'ri baholay olish, uning o'rniga o'zini qo'yib ko'ra bilish malakasini shakllantirish;

Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash: O'zaro hurmat, sabr-toqat, o'zaro yordam va mas'uliyat hissiyotlarini yosh avlod ongiga singdirish hamda yosh oilalarga psixologik yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish. [8, 57 s]

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, tolerantlik madaniyati ustiga qurilgan oila nafaqat ichki ziddiyatlarni oson yengib o'tadi, balki jamiyat uchun ma'nan barkamol, sog'lom va barqaror shaxsni tarbiyalab beruvchi chinakam qo'rg'onga aylanadi. Har birimiz oilamizni asrab avaylashga mas‘ul shax hisoblanamiz. Shunday ekan tinch va farovon yurtda baxtli yashash bizga yarashadi!

Demak, yoshlarimizning baxtli bo’lishlarini ta’minlash uchun oiladagi ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilash muhimdir. Oilalarimiz tinch bo’lsa, jamiyatimiz ham tinch bo’ladi, gullab-yashnaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Андреева Г.М. Социальная психология. — Москва: Аспект Пресс, 2018.
2. Дружинин В.Н. Психология семьи. — Санкт-Петербург: Питер, 2019.
3. Maxsudova M.A. Oila psixologiyasi. O’quv qo’llanma. “Sunrise-Pro”nashr. 2025.-336 s
4. Mirzaaxmedov X. A. "Yoshlarning tolerantlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning sotsiologik tahlili". Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya 2022.
5. Сатир В. Как строить себя и свою семью. — Москва: Педагогика-Пресс, 2020.
6. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. — Toshkent: «O'zbekiston Milliy kutubxonasi», 2010.
7. Xudoyqulov E.J. Oila psixologiyasi. O'quv qo'llanma. — Toshkent: «TDPI», 2022.
8. Shermuhamedova N.A. Falsafa va fan metodologiyasi. — Toshkent: «Universitet», 2021.